



MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISHNING O'TKAZILISHI VA O'ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISH TARIXI

Ganixodjayev Yashnar Abbasovich
Oriental Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Rossiya tomonidan qadim-qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin qardosh va qondosh mustamlakaga aylangan Markaziy Osiyo mintaqasining 1924-yilda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi va unda O'zbekiston SSRning tashkil topish tarixi haqida so'z beriladi.

Kalit so'zlar: harbiy intervensiya, avtonom, plenum, muxtoriyat, siyosiy byuro, Y. Rudzutak, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, O'zbekiston SSR, Komunistik partiya.

Аннотация: В статье рассказывается о проведении в 1924 году национально-территориального размежевания Центральноазиатского региона, который с древних времен был колонией с очень близкими языком, религией, историей, культурой и традициями, и об истории образования в нем Узбекской ССР.

Ключевые слова: военная интервенция, автоном,plenum, автономия, политическое бюро, Ю. Рудзутак, Файзулла Ходжаев, Акмаль Икромов, Узбекская ССР, Коммунистическая партия.

Annotation: The article discusses the 1924 national-territorial delimitation of the Central Asian region, which had been a colony since ancient times with a very close language, religion, history, culture, and traditions, and the history of the formation of the Uzbek SSR in it.

Keywords: military intervention, autonomy, plenum, autonomy, political bureau, Y. Rudzutak, Fayzulla Khodzhaev, Akmal Ikramov, Uzbek SSR, Communist Party.

Rossiyada fuqarolar urushi va chet el harbiy intervensionsiga qarshi kurash yillarida (1918-1922 yillar) Rossiya imperiyasining sobiq hududida mustaqil davlatlar (Polsha, Finlyandiya), mustaqil milliy respublikalar (Litva, Latviya, Estoniya, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston), sovet respublikalari (Belorussiya SSR va b.), muxtoriyatlari hukumatlar (Turkiston Muxtoriyati, Alash Orda, Boshqirdiston Muxtoriyati va b.) tashkil topdi. Bundan tashqari, RSFSR tarkibida turli avtonom sovet respublikalari (Turkiston ASSR, Qirg'iziston ASSR (aslida Qozog'iston ASSR) va b.) bor edi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida qadim-qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin qardosh va qondosh xalqlar yashab kelgan. Bu yerda istiqomat qilgan o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarning



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xo‘jalik hayoti, turmush tarzi, uduumlari ham bir-biriga o‘xshash bo‘lib, ular ham shu muqaddas ona-zaminni o‘zlarining asl Vatanlari deb bilganlar.

Biroq Sovet hokimiyyati arboblari tarixan bir yagona hududda yashab kelgan birodar xalqlarni bir-biridan ajratib tashlash, ularning birlashib, yagona davlat tuzishlariga izn bermaslik uchun barcha choralarini ishga soldi. Turkistonni milliy o‘ziga xoslik, til birligi asosida bo‘lib tashlash g‘oyasi ilgari surildi. Markaz buyrug‘ini bajarishga da’vat etilgan Turkiston ishlari bo‘yicha Turkkomissiya zimmasiga o‘lkada, milliy-davlat chegaralanishini o‘tkazish va shu asosda, bu hududda, bir qator sovet milliy va muxtor respublikalarini tashkil qilish yuzifasi yuklangan edi.

Markaz mo‘ljallayotgan milliy siyosatning mazmuni, mohiyatidan xabardor bo‘lgan Turkistonning ilg‘or ziylilari, uzoqni ko‘ra bilgan donishmand arboblari o‘lka birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo‘r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o‘lka jilovini qo‘lda mahkam tutgan bolshevik mutasaddlar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadilar. Aksincha, yagona va mustaqil Turkiston g‘oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziylilar millatchilikda, turkparastlikda va Sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandilar. Shunday qilib, Markaziy Osiyon milliy-hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo‘lib tashlash masalasi bir necha bor Markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida, ularning Kompartiyalari plenumlarida, shuningdek, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ – RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosni plenumida muhokama etilib, mahalliy xalqqa kuchli bosim o‘tkazib borildi. RKP(b) MQ, uning O‘rta Osiyo byurosni Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari faoliyatiga tazyiq o‘tkazib, milliy-hududiy chegaralash o‘tkazish siyosatini ma’qullab qaror qabul qilishlariga erishib bordi²².

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5-aprelda RKP(b) MQ siyosiy byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosida ko‘rib chiqildi. Shunday qilib, ikki oy mobaynida RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi a’zolari Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari rahbariyatini O‘rta Osyoning milliy chegaralanishi to‘g‘risidagi Markaz g‘oyasini amalga oshirish zarurligiga ko‘ndirishga muvaffaq bo‘ldilar. 1924 yil 5 aprelda O‘rta Osiyo byurosining a’zosi A.Rahimboyev bu haqda RKP(b) MK Siyosiy byurosi majlisida ma’ruza qildi. Garchi majlis bu masala yuzasidan uzil-kesil qaror qabul qilmagan bo‘lsa-da, biroq u O‘rta Osiyo kommunistik tashkilotlarining milliy chegaralanish haqidagi taklifini ma’qullashini bildirdi²³.

Shu tariqa A. Rahimboyevning “Turkiston, Buxoro va Xorazm haqida (milliy respublika tuzilishi to‘g‘risida)” degan ma’ruzasini RKP(b) MK oldiga qo‘yish bilan go‘yo chegaralanish to‘g‘risidagi g‘oyaning paydo bo‘lishida tashabbus respublikalarning o‘zidan kelib chiqdi, degan fikr tug‘dirildi.Unda O‘rta Osiyo Respublikalarida milliy-

²² O‘zbekiston tarixi: oly o‘quv yurtlarining bakalavrлari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 259-265-betlar.

²³ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Б.296.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



hududiy chegaralash loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) O'rta Osiyo byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etilib, ma'qullandi²⁴.

Siyosiy byuro masalani uzil-kesil hal qilish uchun Turkiston Kommunistik Partiyasi(TKP), Xorazm Kommunistik Partiyasi(XKP), Buxoro Kommunistik Partiyasi(BKP) delegatsiyalariga barcha zarur materiallarni tayyorlash va RKP(b)ning XIII syezdiga kiritish vazifasini yukladi, O'rta Osiyo byurosiga milliy-hududiy chegaralanish to'g'risidagi o'z mulohazalarini geografik xaritalarga tushirib uni ilova qilgan holda, RKP(b) MK Siyosiy byurosiga taqdim etish topshirildi²⁵.

O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishini amalga oshirishning dastlabki bosqichi shu bilan tugallandi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, Turkiston, Buxoro va Xorazmnинг partiya rahbariyati RKP(b) MKning xohish-istagini itoat bilan bajardi va chegaralanish hamda milliy respublikalar tashkil qilinishini yoqlab fikr bildirdi. Ular qabul qilgan hujjatlarda fikrlar ifodasining o'xshashligi jihatidan RKP(b) MKning yagona maqsadi va irodasi yaqqol sezilib turardi. Markazning bu irodasining sodiq bajaruvchisi RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining raisi, Markazning partiyaviy dastyori, o'lkaning o'ziga xos xususiyatlarini zaif biladigan Y. Rudzutak bo'ldi²⁶.

Bundan norozi bo'lgan mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm Respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinayev, Ichki ishlar noziri Abdusalomov, Turkiston va Buxoro vakillari: S.Xo'janov, S.Asfandiyorov va boshqalalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e'tiroz bildirdilar. Shuningdek, 1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga "Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat" kelib tushdi. Bu xatda ham Xorazm Respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emasligi aytilgan edi. Ha, o'lka xalqlari milliy chegaralanish siyosatiga qat'ian qarshi edilar, biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadni. RKP(b) MK Siyosiy byurosining 1924 yil 12 iyundagi qaroridan boshlab, aslida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishini tayyorlash jarayoni yangi bosqichga kirdi. 1924-yil 12-iyulda RKP(b) MQ siyosiy byurosi "O'rta Osiyo Respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida"gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi²⁷. 15 iyulda MK O'rta Osiyo byurosi yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va viloyatlarning muvaqqat byurosini tashkil etdi.

²⁴ Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. З-том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекисонда социализм қуриш (1917-1937-йиллар). Бош таҳрир ҳайъати: Р.Х. Аминов ва бошк. Т., "Фан", 1971. 400-401-бетлар.

²⁵ Турсунов Х.Т. Коммунистические партии Туркестана, Бухары и Хорезма в период национально-государственного размеживания Средней Азии. Т., 1963. С. 41.

²⁶ Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. З-том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекисонда социализм қуриш (1917-1937-йиллар). Бош таҳрир ҳайъати: Р.Х. Аминов ва бошк. Т., "Фан", 1971.- Б. 400.

²⁷ O'zbekiston tarixi: oliy o'quv yurtlarining bakalavrлari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 263-265-betlar.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



O‘zbeklar (O‘zbekiston) byurosi tarkibiga Fayzulla Xo‘jayev, Rustam Islomov, Akmal Ikromov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Muxtorjon Saidjonov a’zo sifatida, B. Inoyatov esa nomzod sifatida kiritildi. Rejalashtirilgan yangi milliy tuzilmalarni mazmunan to‘ldirish, ularning hududlarini aniqlab chiqish, chegaralarni ajratish va belgilash lozim edi. Bu ish birmuncha oldinroq RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi tashkil etgan hududiy komissiyada, uning milliy kichik komissiyalarida va janjalli masalalarni hal qilish uchun tuzilgan maxsus komissiyalarda boshlangan edi²⁸. 1924-yil 25-sentabrda RKP(b) MQ siyosiy byurosi 9 va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo‘mitasi bu masalani ko‘rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq, deb topdi. Bu qaror 14-oktabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan ham ma’qullandi. 1924 yil 27 oktabrda SSSR BMIK II sessiyasi TASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi, Butunbuxoro Sovetlarining V qurultoyi va Butunxorazm Sovetlarining V qurultoyi favqulodda sessiyasining milliy-hududiy chegaralanish va yangi respublikalar hamda viloyatlar tashkil etish to‘g‘risidagi iltimosini qondirdi va “mehnatkash xalqning erkin xohish bildirilishi eng yuqori qonundir”, degan dabdaba bilan uni tasdiqladi. Nihoyat, 1924-yilning 27-oktabrida bo‘lib o‘tgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi II sessiyasida O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o‘tkazish tadbirlari to‘la ma’qullandi²⁹.

1924-yil 18-noyabrdan Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitalari maxsus qo‘shma qaror qabul qildi va shu qarorga binoan o‘z vakolatlarini O‘zbekiston SSR Sovetlarining Ta’sis qurultoyiga qadar ish ko‘rvuchi, Fayzulla Xo‘jayev raisligida 31 oktabrda tashkil etilgan O‘zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy Revkom)ga topshirdi³⁰. Bu komitet to‘rt oy davomida O‘zbekiston SSR tuzilishini boshqarib va nazorat qilib bordi³¹.

Muvaqqat inqilobiy komitet tarkibiga Porso Xo‘jayev (poytaxtni ko‘chirish bo‘yicha Markaziy komissiya raisi), Rustam Islomov (O‘zbekistonning muxtor vakili), Abdulla Rahimboyev, Davlat Rizayev (Maorif xalq komissarining birinchi o‘rinbosari), Sulton Qori (Xorazm vakili), Goldber (rais o‘rinbosari), Vladimir Ivanov (Toshkent Yangi shahar ijroiya komitetidan), Inomjon Xidiraliyev (Yer ishlari xalq komissari), Muxtorjon Saidjonov (Ichki ishlar xalq komissari), Qori Yo‘ldosh Po‘latov (Moliya xalq komissari), Ishoq Gaziyev (Adliya xalq komissari), Chinor Imomov (Tojikiston revkomi) va boshqalar kiritildi. Bundan tashqari 30 oktabrda O‘zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi Tashkiliy byurosi ham tuzildi. Tashkiliy byuroning sekretarlari qilib Rustam Islomov va Abdulla Rahimboyev tasdiqlandi. Keyinchalik Vladimir Ivanov tashkiliy byuroning birinchi sekretari, Akmal Ikromov va Nusratulla Maxsum uning a’zolari qilib tayinlandi.

²⁸ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - С. 651-652.

²⁹ Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. З-том. Улуг Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекисонда социализм қуриш (1917-1937-йиллар). Бош таҳрир ҳайъати: Р.Ҳ. Аминов ва бошк. Т., “Фан”, 1971.- Б. 410.

³⁰ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Б.308.

³¹ O‘sha asar. – B.308.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O‘zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komitetning 1925-yil 29-yanvardagi qaroriga ko‘ra yangi tuzilayotgan respublikaning ma’muriy tuzilishi quyidagicha bo‘lgan: O‘zSSR 7 ta viloyat va alohida Nurota uyezdiga bo‘lingan. Samarqand shahri poytaxt bo‘lishi kerak edi. Viloyatlar 32 ta uyezd, uyezdlar esa 312 ta volostga ajralgan³².

Bu paytda O‘zbekiston SSR hududi 312 394 km² (ayrim adabiyotlarda 176 774 km² yoki 163 797 versta²), aholisi esa 3 963 285 kishi bo‘lgan³³. Bu miqdorga Tojikiston ASSR va Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati hududi hamda aholisi kirmaydi.

1924-yilda Milliy chegaralanish natijaşıda O‘zbekiston SSR tashkil etildi. O‘zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O‘zbekiston SSR Sovetlarining ta’sis qurultoyiga qadar Muvaqqat Inqilobiy Qo‘mita ixtiyoriga berildi. Sobiq Buxoro Respublikasi Hukumati Raisi, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston SSR Inqilobiy Qo‘mitasi Raisi etib tasdiqlandi. O‘zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

1926-yil ma’lumotlari bo‘yicha milliy tarkibiga ko‘ra aholining 74,2 foizini o‘zbeklar, qolganlarini esa boshqa xalqlar vakillari tashkil etar edi³⁴.

1924-yil 5-dekabrda Inqilobiy Qo‘mita butun O‘zbekiston xalqiga murojaat qilib, O‘zbekiston SSR tuzilganligini, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kiritilganligini ma’lum qildi. Milliy chegaralanish bilan bir vaqtida, iqtisodiy bo‘linish ham o‘tkazildi. Sobiq Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalariga tegishli barcha boyliklar yangi milliy respublikalar o‘rtasida qayta taqsimlandi. Bu ishlar Sovet hukumati tomonidan maxsus tuzilgan O‘rta Osiyo tugatish komissiyasi boshchiligidagi amalga oshirildi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o‘rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi.

- O‘zbekiston SSR.
- Turkmaniston SSR.
- O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR.
- Qirg‘izlar yashagan hududlar RSFSR tarkibida Qoraqirg‘iz (Qirg‘iziston) muxtor viloyati.
- Qozoqlar yashaydigan tumanlar RSFSR tarkibida Qozog‘iston ASSR.
- Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar Qozog‘iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtor viloyati.

Natijada, yagona Turkiston xalqlari bir-biridan sun’iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o‘lkada o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

1925-yil 13-17-fevral kunlari Buxoroda O‘zbekiston SSR Sovetlarining I qurultoyi bo‘lib o‘tdi. “Xalq uyi”da Butuno‘zbek Sovetlari I qurultoyi ochildi. Qurultoy

³² O‘sha joyda.

³³ Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. - Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашириёти, 1958.- Б.150-153.

³⁴ O‘zbekiston tarixi: oliy o‘quv yurtlarining bakala vrlari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 264-265-b.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ni qabul qildi. Qurultoyda Davlat hokimiyati oliy organlari tuzilganligi rasmiylashtirildi.

O‘zbekiston Kompartiyasi I ta’sis syezdi 1925-yil 8-12-fevralda Buxoroda bo‘lib o‘tdi. Syezdda O‘zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashdi. Uning Markazqo‘mi saylandi. V.I. Ivanov va A. Ikromov (1927-yildan bиринчи kotib) Markaziy Qo‘mitaning Mas’ul kotiblari etib saylandilar. Shu yili O‘zbekiston komsomoli (O‘zLKSM), respublika Kasaba uyushmalari, ularning rahbar organlari ham tuzildi³⁵.

O‘zbekiston SSR Sovetlari MIQ raisi lavozimiga farg‘onalik dehqon, “Qo‘shchi” uyushmasi rahbarlaridan biri Yo‘ldosh Oxunboboyev saylandi. O‘zbekiston SSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi Raisi lavozimiga Fayzulla Xo‘jayev tasdiqlandi. Samarqand shahri O‘zbekiston SSRning poytaxti etib belgilandi. 1930-yilda poytaxt Toshkentga ko‘chirilgan.

1925-yil 13-mayda SSR Ittifoqi (SSSR) Sovetlarining III syezdi Turkmaniston SSR va O‘zbekiston SSRning SSR Ittifoqi tarkibiga kirishi to‘g‘risida shu respublikalar xalqlarining erkin xohishini inobatga olib tasdiqladi va har ikki respublika SSSR tarkibiga kiritildi. Shu tariqa, O‘zbekistonni qonunan rasmiylashtirish jarayoni tugallandi va jahon xaritasida SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika bo‘lgan milliy O‘zbekiston SSR paydo bo‘ldi. O‘zbekiston SSR ko‘p millatli respublika edi: 1925 yil boshlarida jami 8 131 062 kishidan iborat bo‘lgan O‘rta Osiyo respublikalari aholisidan 3 963 285 kishi O‘zbekiston SSRga o‘tdi, ulardan o‘zbeklar 3 381 579 kishini, ya’ni respublika aholisining 3/4 qismini tashkil etardi³⁶. Haqiqatan ham, O‘rta Osiyo respublikalarida yashovchilarning qariyb 90 foizi O‘zbekiston SSR hududida edi³⁷.

Milliy chegaralanish davrida O‘rta Osiyoda faoliyat ko‘rsatib kelgan partiya, komsomol va xo‘jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm Kommunistik partiyalari, komsomol va xo‘jalik tashkilotlari, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi.

1925-yil may oyida O‘zbekiston SSR Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi (SSSR) tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O‘zbekiston SSR hududida ishlaydigan bo‘ldi. 1927-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSRning bиринчи va 1937-yildagi ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko‘chirma nusxasi edi³⁸. Chunki O‘zbekiston qog‘ozda “suveren” respublika bo‘lib, amalda

³⁵ O‘zbekiston tarixi: oliy o‘quv yurtlarining bakalavrлari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 264-265-b.

³⁶ Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Б.312.

³⁷ Вахобов М.Г. Формирование узбекской социалистической нации. С. 398–399.

³⁸ O‘zbekiston tarixi: oliy o‘quv yurtlarining bakalavrлari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 264-265-b.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Markazga tobe bir o‘lka edi, xolos. U o‘z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani mustaqil hal eta olmasdi. Binobarin, Respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto, O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham Ittifoq hukumati tasarrufida edi. Masalan, 1929-yilda Tojikiston ASSR O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston SSRga aylantirildi hamda SSSR tarkibiga olindi. Shuningdek, 1936-yilga kelib, avval Qozog‘iston ASSR, keyin RSFSR (1932–1936-yil) tarkibida bo‘lgan Qoraqalpog‘iston muxtor viloyati Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirilib, O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, qog‘ozda suveren respublika sifatida shakllantirilgan hukmonron sovet imperiyasi tarkibiga kirgan O‘zbekiston SSR amalda Markazga to‘la bo‘ysunuvchi, arzon xomashyo mahsulotlari yetkazib beruvchi o‘lka bo‘lib qolaverdi.

Shu bilan birga, 1925-yilda tashkil topgan yangi “milliy” tuzilmalarni O‘rta Osiyo xalqlarining “milliy davlatchiligi” tashkil etilganligi sifatida baholash ham to‘g‘ri emas. Chunki SSSRning tashkil topganligi haqidagi shartnomaning imzolanishi va SSSR tarkibiga kirish masalalari hamda Toshkentda RKP(b) MK (keyinchalik VKP(b) MK) O‘rta Osiyo byurosi, O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi va boshqa shunga o‘xshash Butunittifoq idoralarining saqlanib qolishi bilan davlatga xos bo‘lgan hokimiyat vazifalari va vakolatlarning barchasi Markaz ixtiyorida bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston tarixi: oliy o‘quv yurtlarining bakalavrлari uchun darslik. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2016. – 259-265-betlar.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917-1939 йилларда. – Б.296.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. 4 томлик. 3-том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекисонда социализм қуриш (1917-1937-йиллар). Бош таҳрир ҳайъати: Р.Ҳ. Аминов ва бошқ. Т., “Фан”, 1971. 400-401-бетлар.
4. Турсунов Х.Т. Коммунистические партии Туркестана, Бухары и Хорезма в период национально-государственного размеживания Средней Азии. т., 1963. С. 41.
5. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. - С. 651-652.
6. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. - Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1958. – Б.150-153.
7. Ваҳобов М.Г. Формирование узбекской социалистической нации. С. 398–399.

